

## **TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDIGI MUAMMOLAR VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI**

*Namangan davlat pedagogika instituti  
Katta o'qituvchisi PhD SH.B.Tursunova.  
Texnologik ta'lim 1-bosqich talabasi  
Xakimova Xushroy Baxodir qizi*

**Annotatsiya:** Bo'lajak mutaxassis uchun oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayonida bilimlarni egallash va ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish, istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ularni samarali qo'llash yo'llarini egallaydi, ularni pedagogik-psixologik faoliyat bilan bog'lash, qadriyat hamda motivatsiyalar mohiyatan o'zlashtirib borishi va texnologik loyihalash hamda amalga oshirishga asoslangan holda texnologiya ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish modeli ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Mutaxassis, ta'lim tamoyili, integratsiya, kasbiy ko'nikma, malaka, ijodkorlik, qadriyat, motivatsiya, raqobatbardosh

Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari asosida ta'lim

tarbiya berish, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishdir. Tarbiyalanuvchilarning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli jarayonda muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan, ta'lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayon tashkil etish o'qituvchilaridan kasbiy kompetentlik, tashabbuskorlik, shaxsiy pedagogik sifatlar, talabalar bilim olish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish ko'nikmalari va tajribasi, tizimli taxlil va qaror qabul qilish malakasi, lavozim vazifalarni, eng avvalo, davlat siyosati talablaridan kelib chiqqan holda bajarishning maqbul va samarali yo'llarini amalga oshirish malakalarini muntazam rivojlantirib borishlarini talab etadi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to'la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatbardosh, yangi sharoitlarga tez moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi yetuk mutaxassisni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Texnologiya ta'limi yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni, shuningdek, mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablar bu borada quyidagi muammolarning mavjudligini ko'rsatadi:

- texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda talabalar tomonidan ta'limning tamoyillari, mazmuni, metodi va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoit yaratilmaganligi hamda bilim va ko'nikmalarning shakllantirilmaganligi;

- kasbiy faoliyatning turli yo'nalishlarida talabalarning faol ta'lim shakllariga bo'lgan ehtiyoji va ijtimoiy zaruriyatning to'la qondirilmayotganligi, shuningdek, texnologiya ta'limi o'qituvchilarining mazkur yo'nalishdagi o'quv-tarbiyaviy

ishlarni tashkillashtirish uchun yetarli darajada kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega emasliklari;

- oliy ta'lim tizimida pedagogik kadrlarni tayyorlash o'quv rejalari fanlarni bloklararo, blokning ichida va predmet doirasida integratsiyalashning kasbiy pedagogik ta'lim asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida kasbiy ko'nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlari yetarlicha amalga oshirilmaganligi.

Oliy pedagogik ta'lim muassasi talabalariningshaxsiy rivojlanishi – ularningijtimoiy-shaxsiy qiziqishlarining kasbiy yo'nalish kasb etishi, mustaqil fikrlashlari, ijodkorliklari, faolliklari, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unlashuvi hamda o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak mutaxassis uchun oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayoni – bu insonda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan sifat, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Talaba ushbu jarayonda bilimlarni egallash va ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish, istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ularni samarali qo'llash yo'llarini egallaydi, ularni pedagogik-psixologik faoliyat bilan bog'lash, qadriyat hamda motivatsiyalar mohiyatan o'zlashtirib boradi.

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash mazmunini yangilash maktabda texnologik ta'lim sifat darajasini ta'minlashga mas'ul bo'lgan pedagog kadrlarning bilim va kasbiy malakalari darajasini yuqori bosqichga ko'tarishga qaratilgan bo'lib, ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maqsadlarga qaratilgan tadqiqotlarimiz natijasida buyum va maxsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirishga asoslangan holda texnologiya ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish modeli ishlab chiqildi.

Inson texnikani qay tariqa yaratgan bo'lsa, xuddi shu tariqa yangi texnika inson tafakkuriga ijobiy ta'sir etib, uni zamonaviy inson sifatida tarbiyalaydi va shakllantiradi. Ayni shu o'rinda inson tomonidan mehnat qurolini ishlab chiqish tabiati hamda ushbu jarayonning pedagogik xususiyatlari o'zaro bog'liq ekanligini qayd etib o'tamiz. Mehnat quroli vositasida mehnatni tashkil etish faqatgina ta'lim va tarbiya tizimi yuzaga kelishining boshlang'ich sharti bo'lib qolmay, balki kasbiy-pedagogik tayyorgarlik tizimining paydo bo'lish sharti ham hisoblanadi. SHu bilan bir vaqtda, uning boshlang'ich, genetik asosi texnika va pedagogika o'rtasidagi munosabatlar hisoblanadi. Ta'lim va tarbiyaning kelib chiqishiga nisbatan madaniy-genetik yondashuv asosida pedagogik bilimlar, faoliyatning shakllanish jarayoni va uning mohiyati, pedagogik va texnik bilimlar o'rtalaridagi munosabatlar kasbiy shakllanishning yuzaga kelishida genetik jihatdan muhim bo'lgan boshlang'ich asos vazifasini o'taydi. Texnologiya ta'lim o'qituvchisini tayyorlash jarayonining tuzilishi va mazmunini loyihalashda, uning asosini kasbiypedagogika tashkil etdi.

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchisini kasbiy-pedagogik tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, matematik bilimlar, psixologik-pedagogik, umummuhandislik, maxsus tayyorgarlik mazmunini tanlash va tuzib chiqish, texnologiya ta'limi o'qituvchisi pedagogik faoliyati haqida, uning vazifalari hamda hal etadigan ta'lim-tarbiyaviy masalalari, munosabatlari usullari borasida to'la tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda motivatsion, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Inglizcha «*competence*» tushunchasining lug'aviy ma'nosi «qobiliyat» demakdir, biroq kompetentsiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi.

Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va amaliy harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarining muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi. SHuning uchun talabalarni pedagogik hamda texnik-texnologik muammoli-vaziyatli topshiriqlar haqiqiy pedagogik va ishlab chiqarish vaziyatlari bilan bog'liq muammolarga duch kelishi kerak. SHunda ular muammoli-vaziyatli topshiriqlar asosini tashkil etuvchi muammoni hal etish tushunchalarini yuzaga keltiruvchi aqliy faoliyatni turli usullar (analiz, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish va boshqalar) yordamida amalga oshiradi.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisining tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin.

1. Zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi.

2. Ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o'qituvchi, malakali o'quv ustalari, texnik xodimlar)ning yetarlicha salohiyatga ega bo'lishi.

3. O'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalar, magnitofonlar (audio, video, multimediya), trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokozolar) jihatdan yetarlicha ta'minlanganligi.

4. Ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit (o'qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarining o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi.

5. Tashkiliy hamda o‘quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo‘lga qo‘yilganligi.

Pedagogik turkum hamda umummuhandislik fanlarining texnologik jihatdan o‘zaro yaqinlashuv jarayoni yangi mazmun kasb etmoqda. Ushbu holat ta‘lim jarayoniga ta‘lim shakllari, metodlari va vositalarining «yaxlit tashkil etuvchisi» bo‘lish talabiga to‘la javob bera oladigan kompyuter texnikasining jadal tatbiq etilishi uchun zarur ijtimoiy asoslarni yaratib, yangi innovatsion va pedagogik texnologiyalarni shakllanishiga asos bo‘ldi. O‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini keng ko‘lamda tatbiq etish sharoitida «pedagogik texnologiya» tushunchasining mohiyati o‘zgarib bormoqda. Mazkur tushuncha dastlab texnologiyaning xususiyatlarini ifoda etishga xizmat qilgan bo‘lsa, hozirda pedagogik texnologiyani mazmunan boyitish ko‘p jihatdan unga muayyan texnik elementlarni qo‘shish hisobiga kechmoqda. Texnologiya ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik tajribadan o‘tgan va hozirgi kunda amaliyotga joriy etilayotgan o‘quv rejalaridagi pedagogik turkum fanlarining mazmuni va o‘rni aniqlandi. 2020 yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi pedagogik-psixologik turkumdagi fanlar bloki texnologiya ta‘limining barcha yo‘nalishlari unifikatsiyasini ta‘minlaydi. O‘z navbatida, o‘quv rejalarida davlat ta‘lim standarti talablari to‘laqonli aks ettirilishiga erishildi, bu esa pedagogik turkumdagi fanlar bo‘yicha darslik, o‘quv hamda ilmiy-metodik qo‘llanmalar, ko‘rgazmali vositalar bilan ta‘minlanishi uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Texnologiya ta‘limi o‘qituvchisini tayyorlash bosqichma-bosqich, gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, pedagogik turkum fanlari hamda matematika va tabiiy-ilmiy fanlar, loyihalash-konstruktorlik-texnologiya, ixtisoslik, qo‘shimcha va tanlov fanlari, ishlab chiqarish amaliyotidan olingan bilim va amaliy ko‘nikmalar texnologiya ta‘lim metodikasi fanida integratsiyalashgan kurs sifatida pedagogik amaliyotda o‘z tatbiqini topadi. Ta‘lim mazmunining didaktik sintezini ta‘minlashga qaratilgan pedagogik hamda texnik-texnologik muammoli-vaziyatli topshiriqlar integratsion kurs sifatida texnologiya ta‘lim metodikasiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishning eng maqbul texnologiyasi sifatida taklif etilishi mumkin.

Bo‘lajak Texnologiya ta‘limi o‘qituvchilarini auditoriyada olgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq etish va o‘z shaxsiy va individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda pedagogik amaliyot qulay imkoniyat yaratadi.

Texnologiya ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlashda auditoriya mashg‘ulotlar (ma‘ruza, amaliy, laboratoriya, seminar mashg‘ulot va hokazolar)ning ustuvor o‘rin tutishini inobatga olinib o‘quv jarayoni bosqichma-bosqich izchilikda olib borildi va shu bilan birgalikda ikkinchi bosqichda talabalarning kasbiy shakllanishida mustaqil ta‘limning o‘rni va ahamiyati aniqlandi. Talabalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishda mustaqil ta‘lim olish, ya‘ni avtodidaktika tamoyili va tashkiliy–metodik shartlari o‘rganildi. Mustaqil ta‘lim olish texnologiyasi masalali-faoliyatli tamoyilga asoslanib, mustaqil bilim oluvchi

talaba tomonidan mustaqil va avtonom ravishda bajaradigan o'quv topshiriqlarining guruhleri va murakkablik darajalari belgilandi.

Amaldagi o'quv rejasiga ko'ra talabalarning haftalik maksimal o'quv yuklamasi 30 soat hajmda belgilanib, shundan 30 soati auditoriya, 30 soati mustaqil ta'limga ajratilgan. O'quv dasturlari o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masalalari va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi ko'zda tutilgan. Talabaniq mustaqil ishi uning auditoriyada va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligida yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuini anglatadi. Mustaqil ish quyidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

1. Bevosita auditoriyada – ma'ruza amaliy mashg'ulot, seminar yoki laboratoriya ishlari bo'yicha vazifalar berish jarayonida;

2. O'qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlardagi bevosita muloqot chog'ida maslahatlar berishda, ijodiy muloqotlar jarayonida, yakka topshiriq bajarishda va boshqalar.

3. Axborot resurs markazida, uyda, talabalar uylarida, kafedralarda talaba tomonidan o'quv yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida.

Texnologik ta'limi yo'nalishlari mutaxassislarni tayyorlash va sifatini nazorat qilish mexanizmi sifatida texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash Davlat ta'lim standartlarida aks ettirilgan majburiy minimal talablar ishlab chiqildi.

Kasbiy va shaxsiy shakllanishning dastlabki bosqichida odatda talabalarning motivatsion, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqarishni aks ettiruvchi individual sifatlarni rivojlantirishga intilmasligi, o'zi ustida ishlashni yoki ta'lim muassasasida o'qishni xohlamasligi, o'qituvchilik kasbini noto'g'ri tanlaganligi kabi holatlar mutaxassislar tayyorlashda qiyinchiliklarga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maxmutov, M.I. Problemnoe obuchenie: Osnovnye voprosy teorii / M.I.
2. Maxmutov. - M.: Pedagogika, 1975. - 368 s.
3. Maxmutov, M.I. Sovremennyy urok: monografiya / M.I. Maxmutov. - 2-eizd., ispr. i dop. - M.: Pedagogika, 1985. – 184 s.
4. Protsess obucheniya (Osnovy didaktiki). B.P.Esipov tahriri ostida. M., 1967y.
5. I.S.Yakimanskaya. Razvivayushche obuchenie.M.,1979y.
6. To'lipov O'. "Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikmahamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari" – T "Fan". 2004 y
7. D.A. Txorjevskiy "Mehnat ta'limi metodikasi" – T "O'qituvchi" 1987y
8. O'.M.Asqarova "Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar" O'quv qo'llanma. – T . "Mehnat",2004y.